

## **MALAKAVIY AMALIYOT DAVRIDA AMALIYOTCHILARNING SINOV DARSLARINI BAHOLASHNING TAXMINIY MEZONLARI**

**Feruza Aminovna Turakulova**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada malakaviy amaliyotlar davrida talabalar tomonidan tashkil etiladigan va o‘tkaziladigan sinov darslarini baholashning taxminiy mezonzlari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** amaliyot, amaliyotchi, sinov, dars, baho, mezon.

## **ПРИМЕРНЫЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗАЧЕТНЫХ УРОКОВ ПРАКТИКАНТОВ В ПЕРИОД КВАЛИФИКАЦИОННОЙ ПРАКТИКИ**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье описаны примерные критерии зачетных уроков, разработанные и установленные студентами в период квалификационной практики

**Ключевые слова:** практика, практиканты, зачет, урок, оценка, критерий.

Oliy ta’lim tizimida tashkil etiladigan malakaviy amaliyotlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiyo‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda alohida o‘rin tutadi, ayniqsa O‘zbekistonning bugungi kunda jaxon mamlakatlari bilan yuzlashayotgan bir vaqtida oliy ta’limda taxsil olayotgan ta’lim oluvchilarning ta’limning uzluksizligi, uzbekiyligi,

o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch va fanga oid kompetentsiyalarini shakllantirilishida uziksiz malakaviy amaliyotni tashkil etilishi, o‘quv jarayonining 4+2 ko‘rinishida olib borilishi ham e’tiborga molikdir.

Malakaviy amaliyot davrida talabalar tomonidan tashkil etiladigan va o‘tkaziladigan sinov darslari ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatiga taylorlaydigan va amaliy ko‘nikma hosil qiladigan jaroyondir. Bu jarayon bo‘lg‘usi pedagogning o‘z kasbiga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, balki ma’suliyatni ham his qilishga undaydi. Ayniqsa o‘tilgan har bir sinov darslarining fan o‘qituvchilari va uslubchilar tomonidan baholanib borilishi esa, amaliyotchilarning sezgirligini oshiradi. Quyida esa sinov darslarni baholanishining quyidagi mezonlarini tavsiya etamiz:

“A’lo” baho qoyiladi, agar amaliyotchi:

- darsni didaktik maqsadiga ko‘o‘ra ma’lum bir izchillik bilan amalga oshirib, mantiqiy, psixologik va tashkiliy birlik bilan tavsiflasa;
- darsda o‘quvchilarning jamoaviy va individual ishlarini birlashtirib, differentsial (tabaqlashuv) yondashuvni amalga oshirsa;
- darsda muammoli yoki qisman muammoli vaziyatlarni yarata olsa;
- o‘qitishning turli usul vametodlarini qo‘llasa;
- pedagogik etikaga rioya qilib, mantiqan fikr yuritib, axborot va texnika vositalaridan foydalana olishni bilsa;
- darsda vaqtini to‘g‘ri taqsimlasa
- amaliyotchi o‘quv muammosini muvaffaqiyatli hal qila olsa;
- dars ishlanmasini o‘z vaqtida yozib, tasdiqlatib olgan bo‘lsa.

“Yaxshi” baho qoyiladi, agar amaliyotchi:

- asosiy talablarga javob beradi darsni mukammal tashkil etsa-yu, ammo ba’zi quyidagi kamchiliklarga yo‘l qo‘ysa:
- sinfni boshqarishda kerakli mahoratni namoyish eta olmasa;
- darsni o‘tkazish jarayonida nomutanosiblikka yo‘l qo‘yib, darsni asosiy tarkibiy qismlarining nisbatini buzsa;

- o‘quvchilarning faolligini yetarli darajada rag‘batlantira olmasa;
- darsning tashkillanishini uning mavzusi va turiga moslay olmasa;
- dars ishlanmasini o‘z vaqtidan kechikib topshirsa.

“Qoniqarli” baho qo‘yiladi, agar amaliyotchi:

- darsni mustaqil o‘tkazishga qiynalsa-yu, lekin asosiy didaktik maqsadni, dars rejasini sezilarli o‘zgarishlarsiz amalga oshirila olsa;
- darsda ko‘rgazmali qurollar, axborot va texnika vositalari mavjud bo‘lsa -yu, ammo talaba ushbu o‘quv qurollaridan foydalanish talablarini buzsa, doska bilan ishslashni bilmsa;
- darsda individual va jamoaviy ishlarni birlashtira ololmasa;
- bir o‘quvchi bilan ishslash orqali butun sinfni qarovsiz qoldirsa (diqqatini teng taqsimlay olmasa);
- darsda uslubiy jixatdan tashabbus ko‘rsata olmay, dars ishlanmasi, kitob doirasidan tashqariga chiqa olmasa;
- nutq xatolariga yo‘l qoysa, har doim ham xato qilgan o‘quvchilarning xatosini tuzatmasa.

“Qoniqarsiz” baho qo‘yiladi, agar amaliyotchi:

- o‘quv materialini taqdim etishda xatolarga yo‘l qo‘ysa, ko‘zlangan didaktik maqsadga erisha olmasa;
- darsda tarbiyaviy vazifalar hal eta olmasa;
- sinfni boshqarishni, intizom va tartibni saqlashni bilmsa;
- darsga tayyor bo‘lmasa. Amaliyotchining darsga tayyorlanmay sinf xonasiga kirishi bu eng katta xatolik sanaladi. Bu vaqtida nafaqat amaliyotchi o‘z vaqtiga, hattoki, o‘quvchilar, dars kuzatgani kirgan uslubchilar, fan o‘qituvchilarining vaqtiga ham hiyonat qilgan bo‘ladi. Lekin amaliyot davrida bunday holatlar juda kam uchraydi. Biz amaliyot rahbarlari sifatida bunday nohush holatlarning oldini olishimiz zarur. Zero, amaliyotchilarning amaliyot davridagi faoliyatları ularning kelgusidagi pedagoglik faoliyaidagi raqobatbardoshlikka taylorlovchi jarayondir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.- Toshkent, 2016 yil 29 dekabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori.-Toshkent, 2017 yil 6 aprel